IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 02. Noyabr ,2026

BOSHLANG'INCH SINIF O'QUVCHILARNING IJTIMOIY-MA'NAVIY FAOLIYATIDA MAS'ULIYATLILIK VA TASHABBUSKORLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISH

Valiyeva Maftunabonu Aktamovna
Nizomiy Ganjaviy nomidagi O'zMPU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich 202-guruh talabasi
Kamoljonova Iroda Niyazjon qizi
Nizomiy Ganjaviy nomidagi O'zMPU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich 202-guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24208078

Annotatsiya Bu maqolada o'quvchilarning ijtimoiy-ma'naviy faoliyatida muhim o'rin tutadigan mas'uliyatlilik va tashabbuskorlik fazilatlarini shakllantirish hamda rivojlantirish masalalari yoritilgan. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar, uning ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlashi va tashabbus ko'rsatish qobiliyatining ahamiyati tahlil qilinadi.
Kalit so'zlar: O'quvchilarning ijtimoiy-ma'naviy faoliyati, mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik, pedagogik kompetensiya, innovatsion yondashuv, ta'lim sifati, shaxs rivoji, kasbiy tayyorgarlik, faollik.

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы формирования и развития таких важных качеств, как ответственность и инициативность, занимающих значительное место в социально-духовной деятельности будущих учителей. Анализируются требования, предъявляемые к личности учителя в условиях современного образования, а также значение его социальной активности, самостоятельного мышления и способности проявлять инициативу.
Ключевые слова: студент, социально-духовная деятельность, ответственность, инициативность, педагогическая компетенция, инновационный подход, качество образования, развитие личности, профессиональная подготовка, активность.

Abstract: This article discusses the issues of forming and developing such important qualities as responsibility and initiative, which play a significant role in the socio-spiritual activities of future teachers. It analyzes the requirements placed on the teacher's personality in modern education, as well as the importance of their social activity, independent thinking, and ability to take initiative.
Keywords: Future teacher, socio-spiritual activity, responsibility, initiative, pedagogical competence, innovative approach, quality of education, personal development, professional training, activity.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari jadallik bilan rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi va dolzarb vazifalar qo‘yilmoqda. Jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiy o‘sish va ma’naviy yuksalish bevosita inson kapitaliga, ayniqsa, kelajak avlodni tarbiyalovchi o‘qituvchilarning salohiyatiga bog‘liqdir. O’quvchilarni nafaqat chuqur bilimga ega, balki ijtimoiy faol, yuksak ma’naviyatli, mas’uliyatli va tashabbuskor shaxs sifatida tayyorlash zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ularning ijtimoiy-ma’naviy faoliyatda faol ishtirok etishi, jamiyat muammolariga befarq bo‘lmasligi, mustaqil qaror qabul qila olishi va yangicha tashabbuslar bilan chiqishi bugungi kun talabidir[1]. Hozirgi kunda ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o‘qituvchi shaxsiga bo‘lgan talablarni tubdan yangilamoqda. Endilikda pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlovchi, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlovchi yetakchi shaxs sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Bunday vazifalarni samarali bajarish esa o’quvchidan yuksak darajadagi mas’uliyatlilikni, kasbiy burchga sadoqatni hamda tashabbuskorlikni talab etadi. Chunki mas’uliyatlilik pedagogning o‘z faoliyatiga ongli munosabatini ifodalasa, tashabbuskorlik uning yangilikka intilishi, muammolarga ijodiy yondashuvi va faol harakat qilish qobiliyatini namoyon etadi. O’quvchilarda mas’uliyatlilik va tashabbuskorlik fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish masalasi ilmiy-pedagogik jihatdan chuqur o‘rganishni talab etadi. Oliy ta’lim muassasalarida bu jarayonni samarali tashkil etish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, amaliy mashg‘ulotlar va ijtimoiy loyihalar asosida ta’limni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, aynan shunday yondashuvlar orqali talabalarda mustaqil fikrlash, jamoa bilan ishlash, muammolarni hal etish va tashabbus ko‘rsatish ko‘nikmalari rivojlanadi.

O’quvchilarning ijtimoiy-ma’naviy faoliyatida mas’uliyatlilik va tashabbuskorlik fazilatlarini rivojlantirish murakkab, ko‘p bosqichli pedagogik jarayon bo‘lib, u shaxsning ichki motivatsiyasi, ijtimoiy muhit va ta’lim jarayonining o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanadi. Bu fazilatlar pedagog shaxsining kasbiy yetukligini belgilovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Mas’uliyatlilik – bu shaxsning o‘z kasbiy faoliyatiga ongli, halol va javobgarlik bilan yondashuvi bo‘lsa, tashabbuskorlik esa yangicha fikrlash, muammolarga ijodiy yondashish va faol harakat qilish qobiliyatidir[2]. Ushbu ikki sifat bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular o‘qituvchining ijtimoiy-ma’naviy faoliyatdagi samaradorligini ta’minlaydi. Zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak pedagoglarda mas’uliyatlilikni shakllantirish avvalo ularning kasbiy ongini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir[3]. O’quvchilar o‘z kelajak kasbining jamiyat oldidagi ahamiyatini chuqur anglab yetishlari, pedagogik faoliyatning ijtimoiy mas’uliyatini his etishlari zarur. Bunda ta’lim jarayonida berilayotgan nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy mashg‘ulotlar, pedagogik amaliyotlar va real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarning o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish, keys-stadi, rolli o‘yinlar orqali talabalar o‘z qarorlarining natijasini his etishni o‘rganadilar va bu ularda mas’uliyat hissining kuchayishiga olib keladi.

Tashabbuskorlikni rivojlantirish esa o’quvchilarni passiv bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylantirishni taqozo etadi. Buning uchun ta’lim jarayonida interfaol metodlardan keng foydalanish muhimdir [4]. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Debat”, “Loyiha metodi” kabi usullar talabalarni mustaqil fikrlashga, o‘z g‘oyalarini ilgari surishga va ularni asoslab berishga o‘rgatadi. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etilishi, turli tanlovlar, seminar va konferensiyalarda

ishtiroki ham tashabbuskorlikni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bu jarayonda o‘qituvchi-talaba hamkorligi, ya’ni pedagogning yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi roli alohida ahamiyatga ega. O’quvchi va talabalarning ijtimoiy-ma’naviy faoliyatini rivojlantirishda tarbiyaviy ishlar ham muhim o‘rin tutadi. Talabalarni turli ijtimoiy loyihalarga, ko‘ngillilar harakatiga, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga jalb etish orqali ularda jamiyatga daxldorlik hissi shakllanadi. Bu esa o‘z navbatida mas’uliyatlilikni mustahkamlaydi va tashabbuskorlikni rag‘batlantiradi. Mahallalarda o‘tkaziladigan ma’naviy targ‘ibot ishlari, yoshlar bilan ishlash, ekologik aksiyalar yoki xayriya tadbirlarida faol qatnashish talabalarning ijtimoiy tajribasini boyitadi [5].

Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga kirib kelishi ham talabalardan tashabbuskorlik va mas’uliyatlilikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Onlayn platformalar, masofaviy ta’lim vositalari, elektron resurslardan foydalanish talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi[6]. Bu esa ularda o‘z-o‘zini boshqarishni, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va natijaga javobgarlik bilan yondashish kabi sifatlarni shakllantiradi.O’quvchi va talabalarda mas’uliyatlilik va tashabbuskorlik fazilatlarini rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish, interfaol metodlardan samarali foydalanish, amaliy faoliyatga keng o‘rin berish, ijtimoiy loyihalar va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash hamda talabalarning mustaqil faoliyatini rag‘batlantirish. Aynan shu omillar uyg‘unligi orqali zamonaviy, faol, mas’uliyatli va tashabbuskor pedagog kadrlarni tayyorlash mumkin bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, o’quvchilarning ijtimoiy-ma’naviy faoliyatida mas’uliyatlilik va tashabbuskorlik fazilatlarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu fazilatlar pedagog shaxsining kasbiy yetukligi, ijtimoiy faolligi va ma’naviy barkamolligini belgilab beradi. Mas’uliyatlilik o‘qituvchining o‘z kasbiy burchiga sadoqatini, o‘quvchilar taqdiri va jamiyat oldidagi javobgarligini anglashini ta’minlasa, tashabbuskorlik esa uning yangilikka intilishi, ijodkorligi va faol pozitsiyasini namoyon etadi. Fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishda ta’lim jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish, interfaol metodlardan foydalanish, amaliy faoliyatni kuchaytirish hamda talabalarni ijtimoiy-ma’naviy loyihalarga keng jalb etish muhim ahamiyatga ega. Oliy ta’lim muassasalarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, mustaqil fikrlashni rivojlantiruvchi usullar va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali talabalarda mas’uliyat hissi va tashabbuskorlik sifatlarini samarali shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qorayev S.B. Pedagogika. Toshkent Zebo Print, 2022.
2. Atayeva N., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika (II kitob). Toshkent Fan va texnologiya, 2015.
3. Toxtaxodjayeva M.X. Pedagogika. Toshkent O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
4. Xasanboyev J., To‘raqulov X.A., Alqarov I.Sh. va boshq. Pedagogika. Toshkent Noshir, 2011.
5. Daminov O.O. Kasbiy pedagogika. Toshkent, 2018.
6. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Toshkent Iqtisod-moliya, 2011.